



IMOM DORIMIY TAFAKKURI VA UNING ZAMONAVIY MADANIY-
AXLOQIY MUHITNING SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY
QIYMATI

Kurbanaliyev Ural Xatamovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti Yoshlar masalalari

va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinnbosari

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk muhaddis va tafsirchi Imom Dorimiyning tafakkur merosi, ayniqsa, uning hadis va fiqhiy qarashlaridagi madaniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar jamiyat identiteti shakllanishida tutgan o'rni falsafiy jihatdan o'rganiladi. Xususan, zamonaviy jamiyatda islomiy meros asosida ma'naviy uyg'onish va axloqiy ong yuksalishi jarayonlarida Dorimiy merosining dolzarbligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Imom Dorimiy, tafakkur, madaniy identitet, ijtimoiy-falsafa, hadis, axloq, qadriyatlar, ma'naviy uyg'onish.*

Ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan qaralganda, har qanday jamiyatning barqarorligi va intellektual taraqqiyoti avvalo uning ichki ma'naviy asoslariga, axloqiy qadriyatlariga, tarixiy-madaniy ongiga bog'liqdir. Bu jarayonda milliy o'zlikni shakllantirish, o'zligini anglash va uni ongli ravishda ijtimoiy ongga singdirish - tarixiy tafakkur egalari merosining faol falsafiy talqini bilan chambarchas bog'liq. Bu borada, Imom Dorimiy kabi allomalarning merosi - bugungi jamiyatda madaniy-axloqiy uyg'onishning negizidir. Uning asarlarida jamiyatning axloqiy me'zonlari, shaxsiy komillikka yetaklovchi tamoyillar, ma'naviyat asoslari, madaniyat va ong integratsiyasi falsafiy jihatdan chuqr yoritilgan. [5]

Imom Dorimiy tafakkurining markazida axloq, iymon,adolat va jamiyatda birlik masalalari turadi. Uning hadislaridan tarkib topgan "Sunan" asari, mohiyatan, shaxs va jamiyat orasidagi axloqiy kontraktni ifoda etuvchi asosiy manbara aylangan. Ushbu asarda inson harakati, niyatlar tozaligi, ichki halollik, xalq bilan muloqot madaniyati, mas'uliyat hissi, adolatni ustuvor tutish kabi qator mezonlar Imom Dorimiy tomonidan ijtimoiy-tarixiy zarurat nuqtayi nazaridan asoslab beriladi. Bu jihatlar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy g'oyalarga mutlaqo mos keladi. Chunki bugungi ijtimoiy hayotda inson erkinligi, javobgarligi va axloqiy tanlovlari asosida barpo etilayotgan madaniy identitet, aynan shu kabi qadimiy merosga tayanib shakllanishi mumkin.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Dorimiy tafakkurining o‘zagi inson axloqiga yo‘naltirilgan. U shaxsning ichki pokligi, o‘zini tarbiyalashi, niyat va amal birligini ta’kidlaydi. Bu qarashlar insoniy kamolotga erishish yo‘lida madaniy tafakkur bilan axloqiy amaliyotning bir-birini to‘ldiruvchi jihatlar ekanligini ko‘rsatadi. Jamiyatni pokiza, adolatli, tafakkurli shaxslar orqali barpo etish g‘oyasi bugungi modern ijtimoiy falsafa yo‘nalishidagi “ahloqiy jamiyat” konsepsiyasiga mos keladi. Shunday ekan, Imom Dorimiyning tafakkuri nafaqat diniy-dogmatik doirada, balki ijtimoiy-falsafiy va madaniy-kommunikativ kontekstda ham chuqur taddiqq etilishi zarur.[3]

Madaniy identitet - bu inson va jamiyatning o‘ziga xosligini belgilovchi umumiyl qadriyatlar majmui bo‘lib, u tarixiy tajriba, diniy e’tiqodlar, urf-odatlar, tafakkur va til orqali shakllanadi. Imom Dorimiy hadislarida aynan shu madaniy identitetning asosiy bo‘g‘inlari - ota-onaga hurmat, ilmga rag‘bat, xalqparvarlik, sabr va shukr, diniy mas’uliyat, jamoat oldidagi burch, shaxsiy poklik kabi mezonlar ustuvor darajada targ‘ib qilinadi. Bu qadriyatlar, har bir musulmon shaxsning asosiy axloqiy, madaniy identifikatori sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida yoshlar orasida milliy o‘zlikni anglash va mustahkamlash yo‘lida Imom Dorimiy merosiga tayanish - nafaqat tarixiy haqiqatni anglash, balki global zamonda o‘z milliy tafakkurimizni asrab qolish uchun ham asosiy zaruratga aylanmoqda. Dorimiy asarlaridagi ijtimoiy mas’uliyat, ilmga asoslangan qarashlar, jamiyatga foyda keltirishga undovchi fikrlar yoshlar uchun kuchli ruhiy-ma’naviy immunitet manbai bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bugungi informatsion zamonda axloqiy buzilishlar, ma’naviy beqarorlik va g‘arbparastlik oqimlariga qarshi tura olishning yagona yo‘li sifatida o‘z tarixiy allomalari fikrlariga tayanish, ularni ijtimoiy ongga singdirish muhim vazifadir. [4]

Imom Dorimiy tomonidan rivoyat qilingan hadislarning bir necha qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyat taraqqiyotiga oid muammolarni yoritishga qaratilgan. Misol uchun, adolatli rahbar bo‘lish, xalq manfaatini ustuvor bilish, yolg‘on so‘zlamaslik, iftira va g‘iybatdan saqlanish, amaldorlarga xiyonat qilmaslik kabi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq masalalar bugungi davlat boshqaruvi, fuqarolik ongini yuksaltirish, jamiyatni isloh qilish masalalari bilan uyg‘undir. Shu nuqtai nazardan, Imom Dorimiy nafaqat muhaddis, balki ijtimoiy ong va jamiyat axloqining nazariy asoschisi sifatida talqin qilinishi lozim.

Dorimiyning tafsirga oid ishlari, shuningdek fiqhiy qarashlari ham ijtimoiy-huquqiy ongni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Unda har bir amal niyatga bog‘liq ekanligi, inson o‘z faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini anglashga mas’ul ekani doimiy ta’kidlanadi. Bu esa ijtimoiy-axloqiy taraqqiyotda shaxsning faolligini, erkinligini, ongli ishtirokini belgilovchi asosiy omildir. Ijtimoiy falsafa shuni e’tirof





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



etadiki, tarixiy ong orqali jamiyat ongini uyg‘otish - bu doimiy ma’naviy mehnat, doimiy intellektual izlanishni talab etadi. Imom Dorimiy merosi bu izlanishda tayanch nuqtaga aylanadi.

Bugungi global gumanitar krizis, madaniyatsizlik va ijtimoiy beqarorliklar fonida Imom Dorimiy kabi allomalarning asarlaridan foydalanish, ularni chuqr o‘rganish, akademik tahlil qilish va ta’lim-tarbiyada keng joriy etish nafaqat ilmiy masala, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning yo‘lidir. Uning fikrlari, ayniqsa, yoshlar ongiga ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy hushyorlik, ilmga chanqoqlik kabi fazilatlarni singdirish vositasiga aylanishi kerak. Bu - ijtimoiy-falsafiy pozitsiyani real amaliyatga tadbiq etishning eng maqbul yo‘nalishidir. [8]

Xulosa. Imom Dorimiy tafakkuri va asarlari zamonaviy jamiyatda madaniy-axloqiy identitetni shakllantirishda fundamental ijtimoiy-falsafiy asosga ega. U ta’lim bergen qadriyatlar, aytgan hikmatlar va yozgan hadislar o‘zining umuminsoniy mohiyati, axloqiy ustuvorligi va jamiyat barqarorligiga xizmat qiluvchi qudrati bilan bugungi kun uchun nihoyatda dolzarbdir. Shu bois, ijtimoiy ongni milliy va diniy asoslar negizida shakllantirishda Imom Dorimiy merosiga suyanish, bu merosni yangicha ilmiy-falsafiy talqin asosida zamonaviy jamiyatga tatbiq qilish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov A. Tafakkur va ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006. – 212 b.
2. Aliev H. Islom falsafasi. – Toshkent: TDShI, 2011. – 189 b.
3. Zohidov H. O‘zbek xalqining axloqiy merosi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 256 b.
4. Dorimiy A.M. Sunan. – Riyoz: Dorus-Salam nashriyoti, 2000. – 2 t.
5. Zahabiy Sh. Ta’rix al-islom. – Qohira: Dorul-Kutub al-Ilmiya, 1990. – 528 s.
6. Xatib Bagdodiy. Ta’rix Bagdod. – Qohira: Dorul-Fikr, 1987. – 346 s.
7. Hamidov B. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 312 b.
8. Mamajonov A. Milliy ong va ma’naviy tarbiya. – Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy, 2020. – 288 b.